



GIPERAKTIV BOLALAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA TA'LIM-TARBIYANING ROLI

Xalikova Shaxodat To'xtayevna

Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti

Nurullayeva Davlatbika Kamiljon qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti K-22-01 guruh talabasi

Annotatsiya: Maqola maktabgacha ta'lim muassasalarida, mакtabda va olilada giperaktiv bo'lgan bolalarni to'g'ri tarbiyalash, ularni boshqa bolalardan ajratmaslik, shuningdek bunday bolalarning o'ziga hos qobiliyatlarini topish va ularni to'g'ri yo'naltirish haqida bo'lib, giperaktiv bolalar uchun mo'ljallangan turli xil o'yin texnologiyalari, bolalarni o'yinlar orqali intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, tafakkur va aql zakovatini oshirish, diqqatni jamlay olishni bilish, guruh bo'lib ishlash, harakatlarni boshqarishni o'rgatishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: Giperdinamik, sindrom, giperaktiv, o'yinlar, diqqatlilik, guruh, oila, bog'cha, maktab, serharakat, davolash, kasallik.

Аннотация: статья о правильном воспитании гиперактивных детей в дошкольных учреждениях, в школе и в семье. Суть статьи в том, чтобы не отделять их от других детей, а также находить и правильно направлять специфические способности таких детей, различные игровые технологии, предназначенные для гиперактивных детей, помогают детям с помощью различных игр развивать их интеллектуальные способности. Развивать мышление и интеллект, повышать концентрацию внимания, умение концентрироваться, работать в группе, состоит в обучении управлению движениями.

Ключевые слова: гипердинамический, синдром, гиперактивный, игры, внимательность, группа, семья, детский сад, школа, плодородие, лечение, болезнь.

Annotation: the article is about the proper upbringing of hyperactive children in preschool institutions, at school and in families. The essence of the article is not to separate them from other children, but also to find and correctly direct the specific abilities of such children, various game technologies designed for hyperactive children help children develop their intellectual abilities through various games, develop thinking and intelligence, increase concentration. the ability to concentrate, to work in a group, consists in learning movement control.

Keywords: hyper dynamic, syndrome, hyperactive, games, mindfulness, group, family, kindergarten, school, fertility, treatment, disease.

Hozirgi kunda giperaktivlik haqida tobora ko'p gapishtmoqda. Giperaktiv bolalar va ularni davolash haqida bosh qotirishayotgan bir qator shifokorlar va psixologlar giperaktiv bolalarga alohida yondashuv zarurligini ta'kidlamoqdalar. Sir emaski, bu



kategoriyadagi bolalarga ruhan nosog'lom deb qarash tushunchasi ham mavjudligini inkor etimaslik kerak. Ko'pchilik odamlar bu atamaning ma'nosini tushunmasdan turib mobil va faol bolalarga nisbatan qo'lllashadi. Biroq giperaktivlik nafaqat chaqaloqning faolligi balki u miyaning buzilishi bilan bog'liq, bolalarning xatti-harakatlarining buzilishi bilan ham bo'g'likdir. Eng avvalo giperaktiv atamasining o'ziga to'xtalib o'taylik. "Giper" (yunoncha "Hyper" - yuqorida). "Faol" so'zi lotincha "activus" dan kelgan va "samarali, faol" degan ma'noni anglatadi.

Shu o'rinda savol tug'iladi bu kasallikmi? Yoki sindrommi? Bunday bolalar bilan qanday ishslash kerak? Nimalarga e'tibor berish kerak? Giperaktiv bolalarga nogiron bollalar kabi murojaat qilish kerakmi? Ularni boshgqa bolalardan ajratish qanchalik darajada to'gri? Eng asosiysi buning davosi bormi? Giperaktiv bolarning ota-onalarini o'yantiradigan savollar juda ko'p ,ammo masalaning yechimi qanday? Giperaktiv bolalar qanday bolalar?

Demak, gikeraktiv bolalar yoki diqqat yetishmovchiligi giperaktivlik sindromi (DEGS). Avvalambor bu atamaning yoki aytish joiz bo'lsa, sindromning kelib chiqishiga to'xtalib o'tsak. Bolaga diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi (DEGS) tashxisini qo'yishda bir qator qiyinchiliklar kelib chiqshi mumkin. N.N.Zavadenko o'z tadqiqotlarida DEGSni autizm, shizofreniya, manikal-depressiv sindromi va olegofreniyaning yengil darajasi bilan almashtirmaslikni ta'kidlab o'tadi. Bunday belgilar ya'ni emotsional beqarorlik va psixomotor notinchlik nevrozga uchragan bolalarda ham kuzatiladi. » I.P.Brezgunov va E.V.Kasatkinalarning ta'kidlashicha disleksiya disgrafiya diskal'kuliya DEGS dagi ikkilamchi belgilardir. Shunday qilib DEGS bor deb taxmin qilingan bolalarni psixologik tadqiq etish bir necha bosqichlarda amalgalashilishi zarur:

- Diqqat va xotiraning rivojlanganlik darajasi;
- Bola emotsoinal sohasining o'ziga xosligi;
- Oilaviy muhitning bola tomonidan idrok etilishini o'rganish;
- Bolaning uyida va maktabda(bog'chada) xulq-atvorining o'ziga hosligi ta'kidlanadi.»{1}

Nevrolog olimlar boladagi giperaktivlik sindromining asl sababi bosh miya ba'zi to'qimalarining tug'ma yetishmovchiligi va notekis pivojlanishi (sabablari) deb ham qaramoqdalar. Bu jarayonda miyaning minimal disfunksiyasi tashxisi qo'yiladi. Ruhshunoslar esa, bu fikrni inkor qilmagan holda giperaktiv sindromining asl sabablaridan yana biri noto'g'ri tarbiyadir deb qarashadi. Psixologlar og'ir nevrologik va somatic kasalliklar bilan hastalangan, lekin giperaktiv sindromi aniqlanmagan bollarni bunga misol qilib ko'rsatishadi. Demak, tibbiy tomonidan sog'lom bo'lgan bollarda ham giperaktiv sindromini ko'b kuzatish mumkin.

Sindromning o'ziga to'xtalib o'tsak. DEGS ning 3 turi mavjud:

1. Diqqat yetishmasligi; 2. Giperaktivlik; 3. Impulsivlik va aralash tur.

Biz bir qarashda giperaktivlik belgilari ko'ringan bolalarga birdaniga bu taxshixni qo'yishimiz biroz noto'g'ri bo'ladi. AQSH va Buyuk Britaniyada bunday



bolalarga giperaktivlik sindromi tashxisi eng kamida 6 oy davomida ko'zga tashlangan alomatlarga asoslangan holda qo'yiladi. Alomatlarning surunkali bo'lishi, bola faoliyatini buzishi hamda nisbatan rivojlanishda ortda qolayotganligini sabab bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda bolaga tashxis qo'yishda yetarli asosga ega bo'lish uchun uyda ,maktabgacha ta'lif muassasasida, maktabda ham kuzatish zarur.

Mutaxassislar DEGS ga chalingan bolalarni quyidagi belgilari asosida ajratadilar: Ushbu guruhga kiruvchi bolalarda ko'proq besaramjon harakatlar, bir joyda o'tira olmaslik, oyoqlarini qimirlatib o'tirish, tashqi stimullarga osongina chalg'ish, o'yin vaqtida va jamoadagi turli vaziyatlarda sabrsizlik, o'z navbatini kutib tura olmaslik; fikrni jamlashga qiyylanish, savolarga o'yamasdan ,jumlanishi ohirigacha eshitmasdan javob berishga harakat qilish va h.k. Olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar davomida ma'lum bo'lishicha, bu guruhdagi bolalarda berilgan topshiriqni bajarish yoki o'yin vaqtida diqqatni qiyinchilik bilan saqlash; bir ishni tugatmasdan ikkinchisiga o'tib ketish; boshqalarga xalaqit berish, atrofdagilarga tegajog'lik qilish (masalan, boshqa bolalarning o'yiniga aralashish) uchraydi.

1. Oqibatini o'ylamay xavfli harakatlar qilish; bunda bola sarguzashtlar yoki o'tkir xissiyotlarni qidirmaydi. (masalan, hech qayoqqa qaramay mashina yo'lga chiqib ketish).2

Bizning respublikamizda mazkur kategoriyaligi bolalar bilan ishslash yaxshi yo'lga qo'yilgan.Mutaxasislarimiz bolalarning ta'lif-tarbiya sohadagi ko'rsatkichlarini interprhetasiya qilish imkonini beradigan izlanishiar olib bormoqdalar. Diqqat tanqisligi giperaktivligi,diqqat tanqisligi gieraktivliksiz;Impulsivlik, guruhiy buzilishlar muammolarini imkon qadar bartaraf e'tish ustida ish olib bormoqdalar.Masalan,

oltingan natijalarni qayta ishslash va interprhetasiysi so'rovnomada taklif etilgan holatiga asosan "hech qachon" dan "har doim" gacha diapazonda amalga oshiriladi. So'rovnomada 43 ta mushohadadan iborat bo'lib, sindromdagi xulq-atvor xususiyatlarini aks ettiradi. Tashqi ta'sirlarga chalg'iydi biror-bir topshiriqni bajarish vaqtida kattalar tomonidan nazorat qilinmasa tez-tez chalg'iydi,ko'pincha unga aytilgan gapni eshitmaydi,topshiriqni bajarish vaqtida fikrlarini yo'qotib qo'yadi, maqsadga qaratilgan faoliyatni o'zi tashkil qilishi kerak bo'lganda qiyinchilik sezadi.

Shovqinsiz va hotirjam o'ynash zarur bo'lganda qiyinchiliklar sezadi.

Xulosa o'rnila shuni aytish mumkinki,bu kategoriyaligi bolalarga ta'lif-tarbiya berish ota-onalardan,ustozlardan juda ko'p mehnat,sabr-qanoat talab qiladi. Giperaktiv bolalarga kasal bolalar sifatida qarash noto'g'ri fikr va albatta ta'kidlab o'tish joizki bunday bolalarning eng katta yutuqlari ularning qiziqiuvchanligidadir. Bunday bolalar o'zlarini qiziqqan ishini ohirigacha olib bora oladilar, va bu borada juda kreativ fikrlaydilar hamda muvaffaqiyatga erishadilar. Giperaktiv bolalarning ota-onalariga qo'yiladigan eng kattta talab esa farzandlarining nimaga qiziqishlarini bilib olsalar va farzandini aynsn shu qiziqishi bo'yicha yo'naltirsalar, ularga o'zlarini qiziqtirgan sohasida imkoniyatlarini yaratib bersalar ,albatta ijobjiy natijalarga erishish imkoniyatlari yanada kengayadi .



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Жалилова С.Х., Бердиев Г., Махмудова Д.А., Ботиров Б.М. Шахснинг психик тараққиёти диагностикаси. – Т., 2009. -49-б.
2. Брязгунов И.П., Кучма В.Р. Синдром дефицита внимания с гиперактивностью у детей. – М.: Институт психотерапии, 1994. -С. 43.
3. Заваденко Н.Н. Как понять ребенка: дети с гиперактивностью и дефицитом внимания. // «Лечебная педагогика и психология». Прил. к журналу «Дефектология», вып. № 5. – М.: «Школа-Пресс», 2000. -С. 112. 4. Политика О.И. Дети с синдромом дефицита внимания и гиперактивностью. – М.: «Речь», 2005. – С. 141-143, 146-147.
4. Политика О.И. Дети с синдромом дефицита внимания и гиперактивностью. – М.: Издательство «Речь», 2005. –С. 141-143, 146-147.
5. Брязгунов И.П., Кучма В.Р. Синдром дефицита внимания с гиперактивностью у детей. – М.: Институт психотерапии, 1994. -С. 43.
6. Заваденко Н.Н. Как понять ребенка: дети с гиперактивностью и дефицитом внимания. // Лечебная педагогика и психология. Прил. к журналу «Дефектология», вып. № 5. – М.: «Школа-Пресс», 2000. -С. 112.